

**“SHAXSIY HUJJAT” SUG'URTA MAHSULOTI BO'YIHA
FUQAROLARNING SHAXSIY HUJJATLARINI SUG'URTA QILISH BO'YIHA
OMMAVIY OFERTA**

Ushbu Ommaviy Oferta (keyingi o'rinlarda “Oferta” deb yuritiladi) “KAPITAL SUG'URTA” aksiyadorlik jamiyati tomonidan jismoniy shaxslarning cheklanmagan doirasiga fuqarolarning shaxsiy hujjatlarini “SHAXSIY HUJJAT” sug'urta mahsuloti bo'yicha, Ofertada ko'rsatigan shartlarda Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti yoki Internet xizmati (avtomatlashtirilgan axborot tizimi, mobil ilovasi) orqali sug'urtalash shartnomasini tuzish bo'yicha yo'naltirilgan taklifidir.

Ushbu Oferta sug'urta polisini rasmiylashtirish sanasida amalda bo'lgan “SHAXSIY HUJJAT” sug'urta mahsuloti bo'yicha fuqarolarning shaxsiy hujjatlarini sug'urtalash Qoidalar (keyingi o'rinlarda sug'urta Qoidalar deb yuritiladi) bilan tartibga solinadi. Sug'urta Qoidalar va ushbu Oferta www.kapital Sug'urta.uz rasmiy veb-saytida va Sug'urtalovchining Internet xizmatlarida mavjud.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va belgilangan sug'urta mukofotini to'lash, uning shartlarini akseptlash va sug'urta qildiruvchining “SHAXSIY HUJJAT” mahsuloti uchun sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlangach, unga “SHAXSIY HUJJAT” elektron sug'urta polisi yuboriladi va sug'urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, ushbu Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilish (aksept qilish) ommaviy Oferta shartlarini qabul qilish hisoblanadi, bu quyidagilarga:

- ushbu Oferta shartlari, shu jumladan unda ko'rsatilgan sug'urta shartlari bilan roziligini;
- sug'urta polisini shakllantirish uchun taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash, shu jumladan tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, taqdim etish, tarqatish, 5 yil muddatga sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirilmagan usulda qayta ishlash yo'li bilan uzatish, shuningdek, ichki hujjat aylanishini ta'minlash bo'yicha sug'urta shartlariga ko'ra o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarish uchun ularni uchinchi shaxslarga o'tkazishga roziligini ifodalaydi.

Agar sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan bo'lsa, shuningdek, sug'urtalovchi tomonidan akseptni bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma akseptga qadar yoki u bilan bir vaqtda olingan bo'lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.

"Sug'urta shartnomasi" va "Sug'urta polisi" atamaları bundan keyin matnda ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma'noga ega.

**OMMAVIY OFFERTA SHARTLARI ASOSIDA TUZILADIGAN "SHAXSIY HUJJAT" SUG'URTA MAHSULOTI
BO'YIHA FUQAROLARNING SHAXSIY HUJJATLARINI SUG'URTALASH SHARTNOMASINING
(SUG'URTA POLISINING) ASOSIY SHARTLARI**

1-BO'LIM. ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFLARI

1.1. Ushbu Ofertada ishlatiladigan asosiy atamalar:

Sug'urta to'lovchi - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq va sug'urta faoliyatini uchun berilgan litsenziya asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi "KAPITAL SUG'URTA" aksiyadorlik jamiyati.

Sug'urta qildiruvchi – shaxsiy hujjatlari yo'qotilganda yoki shikastlanganda mulkiy manfaatlarini sug'urtalangan va muomalaga layoqatli, ushbu Oferta shartlariga muvofiq Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasi jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs yoki chet el shaxsi).

Foyda oluvchi – ushbu Oferta shartlariga ko'ra, Sug'urta qildiruvchining o'zi.

Shaxsiy hujjat- Sug'urta qildiruvchi shaxsning shaxsini, uning huquqlarini, majburiyatlarini, rasmiy yoki ijtimoiy mavqeyini tasdiqlovchi va biografik xarakterdagi boshqa ma'lumotlarini o'z ichiga olgan rasmiy hujjat. Mazkur Ofertaga muvofiq Sug'urta qildiruvchi shaxsning shaxsiy hujjatlariga quyidagilar kiradi: O'zbekiston fuqarosining identifikatsiya kartasi, O'zbekiston fuqarosining biometrik pasporti, chet elga chiqish uchun biometrik pasport, plastik shakldagi milliy haydovchilik guvohnomasi, transport vositasini ro'yxatga olish guvohnomasi, shuningdek sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan shaxsiy xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining identifikatsiya ID-kartasi - O'zbekiston Respublikasi hududidagi ID-karta egasining shaxsini, uning egasi haqidagi shaxsiy biografik va biometrik ma'lumotlarini o'z ichiga olgan, O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi, o'z ichida elektron tashuvchi (chip) bo'lgan hujjat.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining biometrik pasporti - O'zbekiston Respublikasi hududidagi egasining shaxsini va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi, pasport egasining shaxsiy biografik ma'lumotlar va biometrik parametrlar ko'rsatilgan elektron saqlovchi (chip) bo'lgan hujjat.

O'zbekiston Respublikasi fuqarosining xorijga chiqish uchun biometrik pasporti - pasport egasining chet elga chiqish va O'zbekiston Respublikasi hududiga kirish, shuningdek chet elda bo'lish vaqtida shaxsini va O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, unda pasport egasining shaxsiy biografik ma'lumotlari va biometrik parametrlarini saqlovchi elektron saqlash tashuvchisi (chip) mavjud.

Plastik shakldagi milliy haydovchilik guvohnomasi (keyingi o'rinlarda “haydovchilik guvohnomasi” deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs yoki xorijiy davlat shaxsining tegishli toifadagi transport vositalarini boshqarish huquqini tasdiqlovchi rasmiy hujjatdir.

Avtotransport vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma – transport vositasining doimiy ro'yxatdan

o'tganligini va transport vositasining aniq egasiga tegishli ekanligini tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

Tabiiy ofat - to'satdan sodir bo'lgan halokatli tabiiy hodisasi bo'lib, u bo'yicha sug'urta qoplamasi taqdim etiladi. Ushbu sug'urta shartlariga muvofiq tabiiy ofat deganda quyidagi tabiiy hodisalar tushuniladi: dovul, shiddatli yomg'ir, do'l, suv toshqini, qulash, o'pirilish, zilzila.

Yo'qotish - Sug'urta qildiruvchi o'z xohishiga ko'ra o'ziga tegishli bo'lgan shaxsiy hujjatlarga egalik qilish imkoniyatidan mahrum bo'lgan holat.

Yo'qolish - e'tiborsizlik va ularning joylashgan joyini bilmaslik tufayli Sug'urta qildiruvchi tomonidan shaxsiy hujjatlarga egalik qilishning to'xtatilishi.

Zarar - huquqi buzilgan Sug'urta qildiruvchining buzilgan huquqini, yo'qolgan yoki shikastlangan mulkini (haqiqiy zararni) tiklash uchun haqiqatda qilgan xarajatlari.

Sug'urta puli - sug'urta polisi bo'yicha sug'urta tovonini to'lash majburiyatini olgan summa.

Sug'urta mukofoti - Sug'urta qildiruvchi sug'urta polisida belgilangan tartibda va muddatlarda Sug'urta lovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta to'lovi.

Ariza so'rovnomasi - Sug'urta qildiruvchining rasmiy veb-saytida yoki internet xizmatida sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarini kiritish orqali real vaqt rejimida Sug'urtalovchi tomonidan to'ldiriladigan onlayn ariza shakli (elektron ariza). Elektron shaklda to'ldirilgan ariza shakli, agar u to'g'ri to'ldirilgan bo'lsa, sug'urta qilish uchun yozma arizaga tengdir.

Sug'urta Qoidalari - Sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlangan, Sug'urtalovchining ofislarida ko'rib chiqish, shuningdek www.kapital.sugurta.uz rasmiy veb-saytida yoki internet xizmatlaridan yuklab olish yoki QR-kodni skanerlash orqali ko'rib chiqish uchun mavjud bo'lgan sug'urta shartlariga muvofiq shartnoma tuziladi. Qoidalar shartlariga ko'ra, sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga uning ariza-so'rovnomasi yoki og'zaki arizasi asosida sug'urta polisini berish yo'li bilan tuziladi.

Sug'urta polisi - "SHAXSIY HUJJAT" sug'urta mahsuloti bo'yicha Oferta shartlari va fuqarolarning shaxsiy hujjatlarini sug'urta qilish Qoidalari bo'yicha Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasida sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisi faqat unda ko'rsatilgan sug'urta muddati uchun amal qiladi va shartlashilgan sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'langan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

Sug'urta hodisasi - sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan va sug'urta muddati davomida sodir bo'lgan voqea.

Sug'urta voqeasi - sug'urta polisida nazarda tutilgan, yuzaga kelishi Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatining paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan sug'urta hodisasi.

Sug'urta davri - Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofotini o'z vaqtida to'lash sharti bilan sug'urta polisi amal qiladigan vaqt davri. Sug'urtalovchi sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati davomida sodir bo'lgan sug'urta hodisalari uchun javobgar bo'ladi.

Sug'urta hududi - sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) ko'rsatilgan, sug'urta amal qiladigan hudud.

Sug'urta tovonini - sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta puli doirasida Sug'urtalovchi tomonidan to'langan pul summasi.

Sug'urta hodisasi dalolatnomasi - sug'urta hodisasi deb e'tirof etilganidan keyin Sug'urtalovchi tomonidan tuziladigan va sug'urta tovonini to'lash uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi hujjat.

1.2. Ushbu hujjatda foydalanilgan barcha ta'riflar ushbu Ofertada ular uchun belgilangan ma'noga ega. Oferta va sug'urta Qoidalari ta'rif (termin) qiymati bo'lmagan taqdirda, ularning qiymati O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

2- BO'LIM. SUG'URTA OB'EKTI VA SUB'EKTLARI

2.1. Sug'urta ob'ekti bo'lib, Sug'urta qildiruvchini ushbu Ofertaning 3.2. bandida ko'rsatilgan xavflar natijasida sug'urtalangan hujjatlarining shikastlanishi (yaroqsiz holatga kelishi) yoki yo'qotishi tufayli shaxsiy hujjatlariga egalik qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

2.2. Sug'urta sub'ektlari Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi (foyda oluvchi) hisoblanadi.

3- BO'LIM. SUG'URTA XAVFLARI VA SUG'URTA HODISALARI. SUG'URTA HODISALARIDAGI ISTISNOLAR

3.1. Sug'urta xavfi - hodisa sodir bo'lish ehtimoliga sug'urta amalga oshirayotgan taxmin qilingan voqea. Sug'urta hodisasi deb sug'urta Qoidalari va ushbu Ofertada nazarda tutilgan, sug'urta muddati davomida va sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) ko'rsatilgan sug'urta hududida sodir bo'lgan, belgilangan tartibda hujjatlar bilan tasdiqlangan voqeaga aytiladi. Sug'urta Qoidalari va Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lash majburiyati yuzaga kelgan Ofertaga muvofiq belgilanadi.

3.2. Ushbu Oferta shartlariga ko'ra, sug'urta hodisasi bo'lib, Sug'urta qildiruvchining shaxsiy hujjatlarini sabablardan qat'i nazar yo'qolib qolishi yoki yong'in, gazning portlashi, tabiiy ofatlar tufayli yaroqsiz holatga kelishi (shikastlanishi) yoki yo'qotishi hisoblanadi.

3.3. Quyidagi holatlar natijasida yetkazilgan zarar sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv ifloslanishning ta'siri;
- harbiy harakatlar, shuningdek manevrlar yoki boshqa harbiy choralar;
- fuqarolar urushi, har qanday turdagi fuqarolar tartibsizliklari yoki ish tashlashlar;
- davlat organlarining buyrug'i bilan sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) ko'rsatilgan shaxsiy hujjatni olib qo'yish, musodara qilish, rekvizitsiya qilish, hibsga olish yoki yo'q qilish;
- sug'urta hodisasining yuzaga kelishiga olib kelgan qasddan qilingan harakatlarni Sug'urta qildiruvchi tomonidan sodir etilishi.

3.4. Quyidagi hollarda Sug'urta qildiruvchining shaxsiy hujjatlarini yo'qotilishi sug'urta hodisasi deb tan olinmaydi, agar

hujjat:

- sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) ko'rsatilmagan bo'lsa;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda amal qilish muddati o'tgan bo'lsa (agar uning amal qilish muddati shaxsiy

hujjatda belgilangan bo'lsa);

- reja ga asosan yoki Sug'urta qildiruvchining shaxsiga doir ma'lumotlarini o'zgarishi tufayli almashtirilayotgan bo'lsa.

3.5. Sug'urta qildiruvchining shaxsiy hujjatlarini tiklash bilan bog'liq quyidagi xarajatlari qoplanmaydi:

- a) shaxsiy hujjatlarni yo'qotish va tiklash bilan bog'liq vositachilik, maslahat yoki yuridik xizmatlar uchun xarajatlari;
- b) shaxsiy hujjatlar yo'qolishi natijasida yuzaga kelgan turar joy, transport va sayohat xarajatlari;
- c) sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) qoplanishi ko'zda tutilmagan yo'qolganlar evaziga shaxsiy hujjatlarni olish

bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan xarajatlari.

3.6. Ushbu Ofertaga ko'ra, Sug'urta qildiruvchining ma'naviy zarari, yo'qolgan foydasi, turg'unlik, tijorat yo'qotishlari, sud xarajatlari qoplanmaydi.

3.7. Sug'urta faqat sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida) ko'rsatilgan sug'urta hududi doirasida kuniga 24 soat amal qiladi.

4- BO'LIM. SUG'URTA PULI VA FRANSHIZA

SUG'URTA MUKOFOTI, UNI TO'LASH TARTIBI VA SHAKLI

4.1. Sug'urta puli - bu sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bo'yicha Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini bajarish uchun javobgar bo'lgan pul miqdori.

4.2. Sug'urta shartlariga ko'ra franshiza qo'llanilmaydi.

4.3. Ushbu sug'urta mahsuloti (sug'urta shartnomasi) bo'yicha sug'urta puli va sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi tomonidan 1-Illovaga muvofiq ishlab chiqilgan miqdorlarda Sug'urta qildiruvchining ixtiyoriy tanloviga ko'ra belgilanadi va elektron Polis rasmiylashtirilganda Sug'urtalovchining (yoki uning hamkorining) rasmiy veb-saytida/mobil ilovasida yoki axborot tizimida real vaqt rejimida aks ettiriladi.

4.4. Sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchi tomonidan 1 (bir) bank kuni ichida bir vaqtning o'zida to'lov tizimi operatorlari yordamida Sug'urtalovchining hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan to'lanadi.

4.5. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofotini to'lash fakti bir vaqtning o'zida uning sug'urta va ushbu Ofertaning barcha shartlariga roziligini tasdiqlaydi.

4.6. O'zaro hisob-kitoblarning valyutasi O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – "So'm"dir.

5- BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASI VA UNING AMAL QILISH MUDDATI

5.1. Sug'urta shartnomasi 1 (bir) yildan ortiq bo'lmagan muddatga tuzilishi mumkin.

5.2. Sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'liq to'lagan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati tugagunga qadaramal qiladi. Sug'urta muddati sug'urta mukofoti olingan kundan boshlab keyingi kunning soat 00:00 da boshlanadi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta davrining tugash sanasigacha (har ikki sanani ham hisobga olgan holda) davom etadi.

6- BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMASINI (SUG'URTA POLISI) BEKOR QILISH

6.1. Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) quyidagi hollarda bekor qilinadi:

a) sug'urta muddati tugaganda;

b) Sug'urtalovchi o'z majburiyatlarini to'liq bajarganda. Majburiyatlarni to'liq bajarishi - sug'urta shartnomasi shartlariga muvofiq sug'urta hodisalari uchun sug'urta pulining 100 foizini to'lash demakdir;

c) Sug'urta qildiruvchining sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) dan voz kechsa;

d) sug'urta shartnomasini (sug'urta polisini) Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasidagi kelishuvga binoan bekor qilish;

e) agar sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) kuchga kirgandan keyin sug'urta hodisasi yuzaga kelishi ehtimoli yo'qolgan bo'lsa va sug'urta hodisasidan tashqari boshqa holatlar tufayli sug'urta xavfining mavjudligi to'xtatilgan bo'lsa;

f) Sug'urta qildiruvchining vafoti;

g) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida, sug'urta Qoidalarida va Ofertada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

6.2. Sug'urta shartnomasi bekor qilinganda tomonlarning o'zaro hisob-kitoblari quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- 6.1. moddani d) bandida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda Sug'urta qildiruvchi to'lagan sug'urta mukofoti summasining 25 foizidan (yigirma besh foizi) ko'p bo'lmagan miqdorda Sug'urtalovchining ish yuritishi bilan bog'liq xarajatlari chegirib tashlagan holda sug'urta mukofotini tugamagan sug'urta muddatiga mutanosib ravishda qaytariladi. Bunday holda, agar sug'urta tovonilgari to'langan bo'lsa yoki sug'urta polisi bo'yicha to'lanishi kerak bo'lsa, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi;

- 6.1. moddasining a), b), c) bandlarida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bekor qilinganda sug'urta mukofoti qaytarilmaydi;

- 6.1. moddani e) bandida nazarda tutilgan asoslar bo'yicha sug'urta shartnomasi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda tomonlarning takliflari, o'zaro hisob-kitoblari Sug'urta qildiruvchining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq yozma arizasiga ko'ra, Sug'urta qildiruvchi tegishli holatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etgan taqdirda amalga oshiriladi.

7- BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

a) sug'urta hodisasi yuz bergan taqdirda, ushbu Ofertada ko'rsatilgan muddatda sug'urta to'lovini amalga oshirish;

b) Sug'urta qildiruvchi va uning mulkiy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni, agar bu O'zbekiston Respublikasining qonun

hujjatlariga zid bo'lmasa, oshkor qilmaslik;

c) Sug'urtalovchining iltimosiga binoan sug'urta masalalari bo'yicha maslahat berish.

7.2. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta shartnomasini (sug'urta polisini) haqiqiy emas deb topishni va amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan haqiqiy emaslik oqibatlarini qo'llashni talab qilish, agar Sug'urta qildiruvchi shartnomani tuzishda (polisni berishda) bila turib Sug'urtalovchiga sug'urta ob'ekti to'g'risida noto'g'ri ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa;

b) vakolatli organlarga sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi fakti va sababini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish uchun so'rovlar yuborish;

c) agar Sug'urta qildiruvchi Qoidalar va ushbu taklifda belgilangan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan bo'lsa, sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortish;

d) Qoidalarda, sug'urta shartnomasida (sug'urta polisida), ushbu Ofertada va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

7.3. Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:

a) ushbu Oferta shartlariga, Qoidalariga va sug'urta shartnomasiga (sug'urta polisi) rioya qilish;

b) sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzilgandan so'ng, Sug'urtalovchi sug'urta tavakkalchiligini baholash uchun zarur bo'lgan o'ziga ma'lum bo'lgan barcha holatlar to'g'risida xabardor qilish;

c) shaxsiy hujjatlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va saqlash;

d) shaxsiy hujjatlarni tiklash xarajatlari xaqiqatdan to'lagan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kun ichida Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash uchun yozma ariza taqdim etishi va ushbu Ofertaning 8.2-bandda ko'rsatilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini va zarar miqdorini tasdiqlash uchun zarur va etarli bo'lgan hujjatlarni Sug'urtalovchiga taqdim etish.

7.4. Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

a) sug'urta Qoidalariga va ushbu Oferta bilan tanishish;

b) Sug'urtalovchidan sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bo'yicha majburiyatlarni bajarishni talab qilish;

c) ushbu Oferta, sug'urta Qoidalariga va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq sug'urta polisini muddatidan oldin to'xtatish;

d) amaldagi qonunchilikka muvofiq Sug'urtalovchi haqida ma'lumot olish;

e) Qoidalar, sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi), ushbu Oferta va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

8-BO'LIM. ZARAR MIQDORINI ANIQLASH VA SUG'URTA TOVONINI TO'LASH TARTIBI

8.1. Keyinchalik sug'urta hodisasi deb e'tirof etilishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi quyidagilarga majbur bo'ladi:

- Sug'urtalovchi yoki uning vakilini o'zi uchun qulay usulda (telefon, elektron pochta, messengerlar va boshqalar) jo'natuvchini va xabarnoma sanasini aniqlash imkonini bergan holda og'zaki ravishda ogohlantirish;

- agar yo'qolgan hujjatlar topilgan bo'lsa yoki Sug'urta qildiruvchi ularning turgan joyidan xabardor bo'lsa, darhol Sug'urtalovchiga xabardor berish.

Sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida Sug'urtalovchini darhol xabardor qilish majburiyatini bajarmaslik Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lashdan bosh tortish huquqini beradi.

8.2. Sug'urta hodisasi bilan bog'liq zarar miqdori Sug'urta qildiruvchi tomonidan yaroqsiz (shikastlangan) yoki yo'qotilgan shaxsiy hujjatni almashtirish yoki tiklash uchun haqiqatda yo'naltirgan, lekin Sug'urta polisiga muvofiq sug'urta summasidan (javobgarlik limitidan) ko'p bo'lmagan pul miqdori sifatida belgilanadi.

8.3. Zarar miqdori Ofertaning 8.4-bandga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan, hujjatlarni almashtirish yoki tiklash uchun quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

a) yo'qotilgan hujjatning o'rniga vaqtinchalik yoki dublikat shaxsiy hujjatni olish uchun qonunda belgilangan miqdorda davlat bojini (yig'imlar, to'lovlar) to'lash xarajatlari;

b) yo'qotilgan hujjatning o'rniga shaxsiy hujjat olish uchun vakolatli organlar tomonidan zarurati belgilanadigan boshqa xarajatlar.

8.4. Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda sug'urta tovonini to'lash quyidagi hujjatlar asosida amalga oshiriladi:

a) sug'urta voqeasi tavsifi va sug'urta to'lovini o'tkazish uchun Sug'urta qildiruvchining bank rekvizitlari ko'rsatilgan sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizasi;

b) sug'urta polisining nusxasi (agar polis yozma shaklda rasmiylashtirilgan bo'lsa);

v) Sug'urta qildiruvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

d) shaxsiy hujjatning turi, to'lov miqdori, sanasi va to'langan mablag'larning maqsadi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hujjatni (to'lov uchun hisob varaq, kvitansiya va boshq.) almashtirish yoki tiklash uchun Sug'urta qildiruvchi tomonidan amalga oshirilgan to'lovni (yig'im, to'lovni) tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;

8.5. Sug'urtalovchi o'z xohishiga ko'ra haqiqatda taqdim etilgan hujjatlarning etariligi to'g'risida qaror qabul qilishga va etishmayotgan hujjatlarni/ma'lumotni/axborotlarni talab qilishga haqli.

8.6. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqeani ko'rib chiqishni to'xtatib qo'yishga haqli, agar Sug'urta qildiruvchi imkoniyat bo'la turib, sug'urta hodisasining sabablarini baholash uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni Sug'urtalovchiga taqdim etmasa yoki noto'g'ri ma'lumot taqdim etsa. Keyinchalik, Sug'urtalovchi barcha zarur hujjatlarni olgan paytdan boshlab sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqeani ko'rib chiqishni davom ettiradi.

8.7. Sug'urta hodisasining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan faktlar bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan yoki da'vo qo'zg'atilgan bo'lsa, sug'urta to'lovi to'g'risidagi qaror tergov yoki sud muhokamasi tugaganiga qadar qoldirilishi mumkin.

8.8. Sug'urtalovchi da'vo qilingan voqea bilan bog'liq barcha holatlarni o'rganib chiqqandan so'ng, sug'urta voqearasini

sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi. Agar sug'urta hodisasi yuz berganligini sug'urta hodisasi deb e'tirof etsa va tomonlar o'rtasida o'zaro nizo bo'lmasa, Sug'urta loyichisi sug'urta qildiruvchidan barcha zarur hujjatlarni olgan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida (8.4.-band) sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani tuzadi va sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchining bank (shaxsiy) hisob raqamiga pul mablag'larini naqd pulsiz o'tkazish yo'li bilan to'laydi.

8.9. Sug'urta tovonini to'langanidan keyin sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bo'yicha sug'urta puli to'langan sug'urta tovonini miqdoriga kamaytiriladi.

8.10. Bir yoki bir nechta sug'urta hodisasi uchun to'lovlarning umumiy miqdori sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) bo'yicha sug'urta pulidan oshmasligi kerak.

8.11. Sug'urta qildiruvchi quyidagi sabablarga ko'ra sug'urta to'lovini rad etishga haqli, agar Sug'urta qildiruvchi:

- xavf darajasini aniqlash uchun muhim bo'lgan holatlar to'g'risida bila turib yolg'on ma'lumot bergan bo'lsa;
- sug'urta hodisasi yuzaga kelishiga qaratilgan qasddan qilingan harakatlar (harakatsizlik);
- sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqea sodir bo'lganligi haqida o'z vaqtida xabar bermagan bo'lsa;
- sug'urta hodisasi xarakteristikalariga ega bo'lgan hodisaning sabablarini, mohiyatini va uning oqibatlari bilan bog'liqligini aniqlash uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etmagan yoki soxta hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etgan bo'lsa.

8.12. Sug'urta qildiruvchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori Sug'urta qildiruvchiga sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi ariza bergan kundan boshlab 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay xabardor qilinishi va rad etishning asoslantirilgan sabablarini o'z ichiga olishi kerak.

9- BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

9.1. "SHAXSIY HUJJAT" mahsuloti bo'yicha sug'urta polisining boshqa shartlari "SHAXSIY HUJJAT" sug'urta mahsulotiga fuqarolarning shaxsiy hujjatlarini sug'urta qilish Qoidalar bilan belgilanadi.

9.2. O'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.3. Polis va ushbu Ofertada nazarda tutilgan yoki ular bilan bog'liq masalalar bo'yicha, shu jumladan ularni bajarish va buzish bilan bog'liq nizolar, da'volar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish choralari ko'radilar.

9.4. Agar tomonlar muzokaralar orqali tinch yo'l bilan kelishmasa, Sug'urta shartnomasi (Polisi) tuzilishi (rasmiylashtirilishi), o'zgarishi, tugatilishi, bekor bo'lishi, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi (to'liq yoki qisman) bilan yuzaga kelgan yoki kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar va da'volar Sug'urta loyichining ixtiyori bilan fuqarolik ishlarining sudga taalluqliligi va sudlovga tegishlilikiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra Sug'urta loyichining davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyidagi sud tartibida yohud Hakamlik sudi to'g'risidagi Reglamentga, Hakamlik sudi to'g'risidagi Nizomga va Hakamlik sudida taraflarning hakamlik yig'imi, xarajatlari va chiqimlari to'g'risida Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Savdo-sanoat Palatasi huzuridagi Hakamlik sudida (keyinchalik Hakamlik sudi), uning yakka tartibda hal qiluvchi hakamlik sudyasi reglamentiga ko'ra hal etiladi. Da'vo arizasi bilan tumanlararo iqtisodiy sudga yoki Hakamlik sudiga murojaat qilishni tanlash huquqi Sug'urta loyichida qoladi.

9.5. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Tomonlar sug'urta Qoidalar va ushbu Oferta (ariza- so'rovnomasi, sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi, schyot-faktura, aktlar, sertifikatlar, hujjatlar va boshqalar) doirasida elektron shaklda tuzilgan barcha hujjatlar kelishib oladilar va yuridik kuchini tan oladilar va ularni qog'ozdagi hujjatlarga tenglashtiradigan, qo'lda yozilgan imzo bilan imzolangan va tegishli Tomonning muhri bilan tasdiqlanganligida ishonch bildiradilar, agar ushbu elektron hujjatlar operatorlardan biri tomonidan qayta ishlangan va agar ular Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra elektron hisobvara-q-fakturalar aylanmasi tizimi orqali (ushbu faoliyat bilan shug'ullanish uchun ruxsat olgan axborot vositachisi) yuborilgan bo'lsa.

9.6. "KAPITAL SUG'URTA" AJning internet axborot tarmog'idagi rasmiy sayti: www.kapital.sugurta.uz. Sug'urta loyichining rasmiy veb-saytidan Sug'urta qildiruvchi va ushbu axborot tizimining operatori bo'lgan Sug'urta loyichi o'rtasida elektron shaklda ma'lumotlarni almashinuvini ta'minlaydigan axborot tizimi sifatida foydalanish mumkin, shu jumladan sug'urta polisini tuzish, xulosa qilish, o'zgartirish, muddatidan oldin tugatish to'g'risidagi ariza, sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risida xabar berish, sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi ariza, ko'rib chiqish bosqichi va natijalari to'g'risida ma'lumot yuborish; sug'urta to'lovini amalga oshirish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan hodisalar yuz bergan taqdirda, siz Ofertada ko'rsatilgan telefon orqali voqea haqida xabar berishingiz yoki "KAPITAL SUG'URTA" AJning eng yaqin ofisiga (filialiga) murojaat qilishingiz kerak bo'ladi.

Filiallarning manzillari, telefonlari va ish vaqti Sug'urta loyichining rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan.

Sug'urta loyichining rekvizitlari:

To'liq nomlanishi:

«KAPITAL SUG'URTA» aksiyadorlik jamiyati

2021 yil 20 yanvarda 00010-son bilan ro'hatdan o'tgan

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 049696 sonli litsenziyasi

Pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100000, Toshkent,

Mirzo Ulug'bek tumani, Mahatma Gandi ko'ch., 44 uy

Tel/Faks: 998 71 200 1100

H/r: 20216000100138037001

ATB "Kapitalbank"

Bank kodi: 00974 IFUT: 65120 STIR: 200638670

Rasmiy veb-sayti: www.kapital.sugurta.uz

Elektron pochta manzili: info@go.kapital.sugurta.uz

“SHAXSIY HUJJAT” SUG‘URTA MAHSULOTI BO‘YIHA
FUQAROLARNING SHAXSIY HUJJATLARINI SUG‘URTA QILISH BO‘YIHA
OMMAVIY OFERTASIGA 1-ILOVA

**«SHAXSIY HUJJAT» SUG‘URTA MAHSULOTI BO‘YIHA FUQAROLARNING SHAXSIY
HUJJATLARINI SUG‘URTA QILISH UCHUN SUG‘URTA PULLARI VA SUG‘URTA
MUKOFOTLARI MIQDORLARI**

№	Shaxsiy hujjatnin nomi	Sug‘urta puli	Sug‘urta mukofoti
1	ID-karta yoki biometrik pasport	700 000	18 500
2	Xorijga chiqish uchun biometrik pasport	700 000	18 500
3	Milliy haydovchilik guvohnomasi	500 000	15 000
4	Avtomototransport vositasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma	500 000	15 000

**ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА
НА СТРАХОВАНИЕ ЛИЧНЫХ ДОКУМЕНТОВ ГРАЖДАН
ПО СТРАХОВОМУ ПРОДУКТУ «SHAXSIY HUIJJAT»**

Настоящая Публичная оферта (далее – «Оферта») является адресованным неопределенному кругу физических лиц предложением Акционерного общества «KAPITAL SUG'URTA» заключить договор страхования личных документов граждан по страховому продукту «SHAXSIY HUIJJAT» на условиях, указанных в Оферте посредством официального сайта или интернет сервиса (мобильного приложения, автоматизированной информационной системы) Страховщика.

